

MUALLIFLAR UCHUN YO‘RIQNOMA

“Davr, jamiyat va inson” ilmiy jurnali ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda olib borilgan dolzarb, original, ilmiy asoslangan tadqiqot natijalarini nashr etishga mo‘ljallangan.

Jurnalga taqdim etiladigan maqolalar falsafa, tarix, huquq, siyosatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni qamrab oladi.

1. Umumiy talablar

Jurnalga taqdim etiladigan maqola ilgari boshqa nashrlarda chop etilmagan bo‘lishi kerak.

Maqola muallifning mustaqil ilmiy izlanishi natijasi bo‘lishi, mavzu dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bilan ajralib turishi lozim.

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar, ilmiy xulosalar va takliflar uchun muallif shaxsan mas‘ul hisoblanadi.

Jurnalga maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Maqolalar tahririyat tomonidan dastlabki texnik tekshiruvdan o‘tkaziladi hamda zaruratga ko‘ra taqriz asosida nashrga tavsiya etiladi.

Akademik halollik tamoyillariga zid holatlar, xususan plagiat, ma‘lumotlarni soxtalashtirish, boshqa mualliflar fikrlarini manbasiz keltirish holatlari aniqlansa, maqola rad etiladi.

2. Maqola hajmi va texnik rasmiylashtirish talablari

Maqola hajmi 5 sahifadan 10 sahifagacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

Matn Word formatida, A4 o‘lchamdagi sahifada tayyorlanadi.

Sahifa maydonlari: yuqoridan – 2 sm, pastdan – 2 sm, chapdan – 3 sm, o‘ngdan – 1,5 sm.

Shrift: Times New Roman.

Asosiy matn shrift o‘lchami: 14.

Qator oraliq‘i: 1,5.

Abzats: 1,25 sm.

Matn eni bo‘yicha tekislanadi.

Sahifalar raqamlanmaydi.

3. Maqolaning tuzilishi

Maqola quyidagi ketma-ketlikda rasmiylashtiriladi: maqola nomi, muallifning familiyasi, ismi, sharifi, muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, annotatsiya, kalit so‘zlar, asosiy matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Agar maqola bir nechta muallif tomonidan yozilgan bo‘lsa, barcha mualliflar haqidagi ma‘lumotlar to‘liq ko‘rsatilishi shart.

4. Maqola nomi va muallif ma‘lumotlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi bosh harflarda, sahifa markazidan yoziladi.

Bir qator tashlab, muallifning familiyasi, ismi, sharifi sahifa markazida yoziladi.

Muallif nomi qalin shrift bilan beriladi.

Keyingi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi oddiy shrift bilan yoziladi.

Zarur hollarda elektron pochta manzili ham ko'rsatilishi mumkin.

5. Annotatsiya va kalit so'zlar

Annotatsiya 5–10 qator hajmida bo'lishi tavsiya etiladi.

Annotatsiyada tadqiqotning maqsadi, usuli, asosiy natijalari va xulosalari qisqacha yoritilishi kerak.

Kalit so'zlar 5 tadan 10 tagacha bo'lishi maqsadga muvofiq.

6. Asosiy matn mazmuni

Maqola mazmunan quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi tavsiya etiladi: mavzuning dolzarbligi, mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili, tadqiqot metodlari, asosiy tahlil va natijalar, xulosa, taklif va tavsiyalar.

Maqola mavzusi va yo'nalishidan kelib chiqib ushbu tuzilma qisman o'zgartirilishi mumkin, biroq ilmiy mantiq va izchillik saqlanishi shart.

7. Iqtibos va havolalar

Maqolada keltirilgan barcha iqtiboslar, statistik ma'lumotlar, nazariy qarashlar va boshqa muallif fikrlariga havola berilishi shart.

Havolalar satr osti eslatmalari yoki foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati orqali rasmiylashtiriladi.

Adabiyotlar ro'yxatida faqat maqolada foydalanilgan manbalar keltiriladi.

8. Maqolani taqdim etish tartibi

Maqola jurnalning rasmiy elektron manziliga yoki tahririyatning belgilangan aloqa vositalari orqali yuboriladi.

Maqolalar har oyning 10-sanasigacha qabul qilinadi.

Jurnal har oyda nashr etiladi.

Tahririyat maqolani tahrir qilish, qisqartirish yoki muallifga qayta ishlash uchun yuborish huquqiga ega.

9. Tahririyatning huquqlari

Tahririyat jurnal yo'nalishiga mos kelmaydigan, texnik talablarga javob bermaydigan yoki ilmiy saviyasi yetarli bo'lmagan maqolalarni qabul qilmaslik huquqiga ega.

Tahririyat zarur hollarda maqola matniga uslubiy va texnik tahrir kiritishi mumkin.

10. Aloqa ma'lumotlari

Telefon: +998335021298

Telegram: @Sharopov88

Email: davrjournal871@gmail.com

MAQOLA SHABLONI

MAQOLA NOMI

Muallif F.I.Sh.

Ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi

Annotatsiya: Bu yerda maqolaning qisqacha mazmuni, tadqiqot maqsadi, usuli va asosiy natijalari 5–10 qator doirasida yoziladi.

Kalit soʻzlar: 5–10 ta kalit soʻz yoziladi.

Maqola matni shu yerdan boshlanadi. Matn ilmiy uslubda, mantiqiy izchillik asosida yoritiladi. Avval mavzuning dolzarbligi ochib beriladi. Soʻng mavzuga oid mavjud ilmiy qarashlar va adabiyotlar tahlil qilinadi. Keyingi qismda tadqiqotning asosiy mazmuni, muallif tahlili, ilmiy natijalari va amaliy takliflari bayon etiladi. Maqola yakunida xulosa beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manba nomi.
2. Manba nomi.
3. Manba nomi.